



# FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

Husaynova Dilafruz<sup>1</sup>

Yandasheva Diliniso<sup>2</sup>

<sup>1,2</sup> Nukus davlat pedagogika instituti, o'zbek tili va adabiyoti yo`nalishi 1-kurs magistrantlari

## O'ZBEK TILI OQUV FANINI O'ZIGA XOS ZAMONAVIY METODLAR ASOSIDA TASHKIL ETISHN ZARURIYATLARI

### Abstract

This paper makes analyses of the modern methods form Uzbek language subject. On this case, research has been pinpointed from various aspects to get better development in the further. In conclusion, research has been outlined both outcomes and shortcomings of the topic with some suggestions.

### Keywords

Uzbek language, research , teaching, subject, methods

### Kirish

Bugun O'zbekistonimiz «Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari» degan bosh tamoyil asosida taraqqiyotning yangi, yanada yuksak bosqichiga ko'tarilmoqda. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar jarayonida davlat tilining hayotimizdagi o'rni va nufuzi tobora oshib bormoqda.

O'zbekistondagi strategik rivojlanishlar jarayoni yuqori malakali kadrlarni tayyorlashni taqozo qilmoqda. Pedagog kadrlar tayyorlashning sifatini ko'tarishda talabalarni ilm-fan taraqqiyotining eng so'nggi yutuqlaridan xabardor qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Shiddat bilan ro'y berayotgan barcha o'zgarishlar, xususan, O'zbekiston ta'lif tizimining butun jahon bilan integratsiyalashuvi fanlarni nazariy va amaliy asoslarining takomillashishiga va o'z navbatida yangi atamalar



va tushunchalar paydo bo‘lishiga sabab bo‘lmoqda. Zamonaviy o‘qitish texnologiyalari, ular bilan bog‘liq metodik yondashuvlar esa bo‘lajak o‘qituvchilarda zaruriy bilimlar, muhim qonuniyatlar, ko‘plab fundamental tushunchalarni nisbatan engil, chuqur va mustahkam shakllantirish uchun qulay sharoit yaraishi shubhasiz.

Ma’lumki, “Davlat tili to‘g‘risida”gi Qonun va istiqlol tufayli o‘zbek tilining nufuzi tiklandi, uning rivojlanishi uchun keng ufqlar ochildi. O‘zbek tili nafaqat muomala, aloqa vositasi, balki ilmiy, badiiy, rasmiy til sifatida ham keng miqyosda qo‘llana boshladи. O‘zbek tilini o‘rganish, o‘qish-o‘qitish, ilmiy, badiiy asarlarni, o‘quv adabiyotlarni o‘zbek tilida chop etish keng yo‘lga qo‘yildi. Qisqa qilib aytganda, o‘zbek tili “mustaqil davlatimizning bayrog‘i, gerbi, madhiyasi, Konstitutsiyasi qatorida turadigan, qonun yo‘li bilan himoya qilinadigan muqaddas timsollaridan biri”ga aylandi.

Bugungi kunning zamonaviy o‘qituvchisi o‘quvchilarga ta’lim berishda albatta, o‘zbek tilining nufuziga urg‘u berishda o‘qitayotgan mavzudan kelib chiqqan holda turlicha yondashadi. Bunday vaziyatda o‘qituvchilar o‘quvchilarning tabiatini hamda sharoitlarini ham hisobga olishga to‘g‘ri keladi, hattoki dars jarayoni kechayotgan vaqt, mavsumga ham e’tiborlarini qaratishlari lozim bo‘ladi.

Rivojlanatgan yangi O‘zbekiston ta’lim tizimi o‘qituvchi pedagoglardan o‘zbek tilini o‘rgatishda o‘quvchilarga faqatgina savodli o‘qish-yozishni, to‘g‘ri gapirish, to‘g‘ri talaffuz me’yorlarini o‘rgatishni talab etibgina qolmasdan, balki, oily darajadagi o‘zbekona nutqiy madaniyatini, ijodkorlik va suxandonlikni egallah, ilm-fanning turli sohalarini amaliy egallah va turli sohalarda o‘zbek tilida ixtiolar qilish imkoniyatini shakllantirish, o‘zbek xalqining qadimiy yuksak boy meroslari, madaniyatini ham o‘rgatishni talab etadi. Shundan kelib chiqib, ona tili mashg‘ulotlari ham ta’limiy, ham tarbiyaviy, ham rivojlantiruvchi maqsadlar ko‘zda tutiladi. Darsning ta’limiy maqsadida o‘rganilayotgan til hodisasi yuzasidan puxta nazariy bilim berish, ushbu til hodisalarini amalda qo‘llash ko‘nikma va malakalari orqali ularni nutqiy faoliyatda qo‘llay olishga o‘rgatish ko‘zda tutilsa, tarbiyaviy maqsadda shu til hodisasi orqali o‘quvchilarda o‘z xalqiga, Vataniga sadoqat, milliy tilga muhabbat, uni puxta egallahga ishtiyoq, ajdodlarini qadrlash, milliy qadriyatlar, an'analar, urf-odatlar ruhida tarbiyalashni, rivojlantiruvchi maqsad o‘quvchilarni mustaqil fikrlash va qiyinchiliklarni mustaqil ravishda yengish, o‘ziga ishonch va qat’iylik, o‘z nuqtai nazarini himoya qilishga o‘rgatishni talab etadi.

Fan bo‘yicha talabalarning bilimiga, ko‘nikma va malakasiga qo‘yiladigan talablar qatorida o‘zbek tilini o‘qitish metodlari, usullari, ularning nazariy asoslari; ta’lim tizimida fanning mazmuni, uzviyligi va uzuksizligini ta’minlashga



qaratilgan metod va usullar asosida o'qitish samaradorligini oshirish, ta'lif jarayonini tashkillashtirishning ilmiy-metodik asoslari, o'zbek tili va adabiyoti o'qituvchisining pedagogik faoliyatini, o'quv mashg'ulotlarini, kasbga yo'naltirib muammoli o'qitishni bilishi, malaka hosil qilishi va amalda qo'llay olishi; o'zbek tili ta'lifida an'anaviy va noan'anaviy dars shakllarini qo'llash, o'quvchilar o'quv-biluv faoliyatini faollashtirishga qaratilgan dars usullaridan foydalanish kabi ko'nikmalarga ega bo'lishlari lozimligi ko'rsatib o'tilgan.

### ***Xulosa***

Bo'lajak o'zbek tili o'qituvchilarining ilmiy-pedagogik salohiyatini oshirish, ularni zamonaviy ta'lif jarayonida o'qituvchining pedagogik boshqarish uslublari va vositalarini biladigan, muammolarni aniqlashga, g'oyalarni regeneratsiya qilishga, qarorlarni qabul qilishga qodir bugungi kun o'qituvchisi sifatida tayrlashga alohida e'tibor qaratish davr talabidir.

### ***Foydalanilgan adabiyotlar***

1. G'oziyev E. O'quvchilarni umumlashtirish usullariga o'rgatish va ularning aqliy taraqqiyoti. T., 1983.
2. Nazarova S. O'zbek tili o'qitish metodikasi. T., 1992.
3. Abdurahmonov G'. Behbudiy va uning hozirgi o'zbek adabiy tilining shakllanishidagi xizmatlari// «O'zbek tili va adabiyoti» jurnali, 1995, 3-son.
4. Abdurahmonov G' A.Qodiriy uslubi haqida// «O'zbek tili va adabiyoti» jurnali, 1994, 4,56-qo'shma sonlar.
5. Babajanov F. O'zbek jadid dramalarining lioniy xususiyatlari. f.f.n. ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiyaning avtorefarati. Samarqand, 2002 yil.